

**"TASDIQLAYMAN"**

Toshkent shahar statistika

boshqarmasi boshlig'i

L.T.Mirsoatov

2024 yil " 8 " may



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi  
bo'limi to'g'risida**  
**NIZOM**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur nizom Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi (keyingi o'rinnlarda Bo'lim deb ataladi) maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquq va majburiyatlari, shuningdek, uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Bo'lim O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagи "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-114-son qaroriga muvofiq tashkil etilgan va Statistika boshqarmasi (keyingi o'rinnlarda Boshqarma deb ataladi) Boshqarmaning tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi.

3. Bo'lim o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonunlariga, Oliy Majlisning normativ qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentfigi to'g'risida"gi nizomga, mazkur nizomga, shuningdek, boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

4. Bo'lim tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'yicha faoliyatini tumanlar statistika bo'limlari (keyingi o'rinnlarda hududiy statistika organlari deb ataladi) bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

5. Bo'lim o'z faoliyatini boshqarma boshlig'i rahbarligida amalga oshiradi.

Bo'lim o'z vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha Boshqarma boshlig'i o'rindbosariga bo'ysunadi.

## 2-bob. Bo'limning vazifalari va funksiyalari

6. Quyidagilar Bo'limning asosiy vazifalari hisoblanadi:

*a) tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'yicha yagona siyosatni ishlab chiqish va bajarish, statistikani tashkil qilishning samarali tizimini ta'minlash va milliy statistika tizimi doirasida muvofiqlashtirish va funksional tartibga solish sohasida:*

Statistika ishlari dasturi, Statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturi, metodologik ishlarning reja-jadvali, Boshqarmaning ish rejalarini o'z vaqtida shakllantirilishida ishtirot etish;

statistik ma'lumotlar foydalanuvchilari talabini o'rgangan holda uzoq muddatli maqsadlar va yo'nalishlar bo'yicha statistik ko'rsatkichlarni joriy etib borish;

Statistika ishlari dasturining tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasiga oid qismi bo'yicha takliflar ishlab chiqish va taqdim etish;

tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi sohasida milliy statistika prinsiplari va xalqaro standartlarga javob beradigan yagona statistika uslubiyotiga rioya etilishini ta'minlash;

ishlab chiqiladigan me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalari Bo'lim vakolati doirasidagi takliflar ishlab chiqishda ishtirot etish.

*b) statistika uslubiyotlari va xalqaro tavsiyalarga muvofiq bo'lgan statistika kuzatuvlari shakllarini ishlab chiqish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish sohasida:*

tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi ma'lumotlarini yig'ish va qayta ishlashning zamонавиј metodologiyasi va metodikalarini keng joriy etish yo'li bilan statistik kuzatuvlar tizimini qabul qilingan xalqaro amaliyotga yanada moslashtirishni amalga oshirish;

tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'yicha statistika kuzatuvlari shakllarini ishlab chiqish, tasdiqlashga kiritish va amaliyotga joriy etish, statistik kuzatuvlar o'tkazish usullarini aniqlash;

milliy statistika sohasiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda Bo'lim vakolati doirasida ishtirot etish;

tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi sohasida xolis, sifatli va dolzarb hisobot ma'lumotlarini tayyorlashni muvofiqlashtirish va idoraviy kuzatuvlar shakllarini kelishishda ishtirot etish;

foydanuvchilarning statistik ma'lumotlarga bo'lgan talabiga muvofiq, tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi sohasi bo'yicha rivojlanayotgan xorijiy tajribani o'rghanish, umumlashtirish va tarqatish;

tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi sohasida xalqaro tashkilotlar tomonidan mamlakatlar reyting baholarini tuzish uchun foydalaniladigan axborot manbalarini o'rghanishni tashkil etish, ular asosida shakllantiriladigan va tarqatiladigan statistik ko'rsatkichlar tarkibini yaxshilash chora-tadbirlarini ishlab chiqishda ishtiroy etish;

tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'yicha statistika hisobotlari tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash va hisobotlarni tuzish tartibi bo'yicha yo'riqnomalar va qo'llanmalar ishlab chiqish.

v) *tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasiga oid dolzarb statistika ma'lumotlarini yig'ish, ularni qayta ishlash, umumlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlash jarayonlarini tashkil etish sohasida:*

Statistika ishlari dasturining tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasiga oid qismini bajarilishini ta'minlash;

Tumanlar, iqtisodiyot tarmoqlari va sektorlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish davlat dasturlari bajarilishi bo'yicha statistika kuzatuvlarini Bo'lim vakolati doirasida tashkil etish va amalga oshirish;

tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasiga oid statistika hisobotlarini elektron ko'rinishda, zarur hollarda qog'oz ko'rinishida yig'ishni, so'rovlarni va boshqa kuzatuvlarni tashkil etish;

tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasiga oid ko'rsatkichlarining statistik hisobini yuritish, tuman bo'yicha muhim jarayonlarining birlamchi statistik tahlilini amalga oshirish;

statistik hisobot ko'rsatkichlarining va o'tkazilgan tanlanma kuzatuvlar natijalarini tezkorligi, ishonchliligi va xolisligini hamda statistik ma'lumotlarning shaffofligi va oshkoraligni kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

xo'jalik yurituvchi subyektlarga ishonchli statistika hisobotlarini taqdim etishda har tomonlama ko'maklashish, statistik ma'lumotlarni taqdim etish sohasida huquqiy madaniyatni oshirish va huquqbazarliklarning oldini olishning ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish, statistik nazoratni amalga oshirishning zamонавији usullarini joriy etish bo'yicha takliflarni kiritish;

axborot-statistik ma'lumotlar bazasini yuritish, veb-saytlarni yangilab borish uchun tahliliy ma'lumotlarni tayyorlash;

tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi sohasiga oid statistik ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash;

qonunchilikka muvofiq, Bo'lim ish faoliyatida shakllangan arxiv hujjatlarini jamlash, saqlash, hisobga olish va ulardan foydalanish ishlarini amalga oshirish.

*g) xalqaro darajada umumqabul qilingan rasmiy statistikaning tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasiga oid asosiy prinsiplari asosida sifatli va ishonchli statistika ma'lumotlarini shakllantirish, ularning shaffofligi va oshkoraligni oshirishga qaratilgan ta'sirchan mexanizmlarni amaliyotda qo'llash sohasida:*

milliy va xorijiy foydalanuvchilarning keng ommasi uchun tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasiga oid ko'rsatkichlarni maksimal darajada shaffofligi va oshkoraligni, xalqaro statistik to'plamlar uchun tayyorlanishini ta'minlash;

ommaviy axborot vositalarida joylashtirish uchun tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo sohasida yuz berayotgan o'zgarishlarni ifodalovchi tahliliy ma'lumotlar va press-relizlar tayyorlash;

tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo sohasini tavsiflovchi tezkor va sifatli statistik ma'lumotlarni tayyorlashni amalga oshirish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi qarorlari ijrosi yuzasidan Bo'lim vakolati doirasida yillik, choraklik va oylik statistik hamda tahliliy materiallarni tayyorlashda ishtirok etish;

tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasiga oid statistik kuzatuvlar va rasmiy statistik ma'lumotlarni tarqatish bo'yicha tashkil etiladigan axborot-tushuntirish ishlarida ishtirok etish;

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda statistik, tahliliy, axborot, xizmatlarini va Statistika ishlari dasturidagidan tashqari boshqa xizmatlarni ko'rsatish.

*d) tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasiga oid ma'lumotlarni tayyorlash jarayonlarida raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, axborot tizimlarini rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilarini va ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilarning axborot tizimlari bilan o'zaro integratsiyasini ta'minlash sohasida:*

tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasiga oid statistika hisobotlarini yig'ishda, so'rovlarni va boshqa kuzatuvlarni o'tkazishda raqamli texnologiyalardan keng foydalanishni tashkil etish;

tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasini shakllantirishda tegishli davlat idoralarining axborot tizimlari bilan o'zaro integratsiyasini ta'minlash;

raqamli texnologiyalardan keng foydalangan holda, tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi asosiy ko'rsatkichlarining elektron ma'lumotlar bazasini yuritish.

7. Bo'lim o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi sohasi uslubiyoti, statistika ishlarini tashkil etish va ularni bajarish masalalari bo'yicha Boshqarmaning hududiy statistika organlariga yordam ko'rsatadi;

Boshqarma boshlig'inining topshiriqlari va foydalanuvchilarning so'rovlariga asosan tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'yicha ma'lumotlar tayyorlaydi;

xalqaro tavsiyalar, shu jumladan sifatni boshqarishning milliy modellari (GSIM, GSBPM, GAMSO) hamda xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini joriy etishni ta'minlaydi;

Bo'limning uslubiy, iqtisodiy, tashkiliy va statistik ishlari rejalarini shakllantiradi va ularning ijrosini ta'minlaydi;

Bo'lim vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha tizimlashtirilgan elektron ma'lumotlar bazasining yaratilishi va yuritilishini, uning muntazam ravishda to'ldirilib va yangilanib borilishini ta'minlaydi;

Boshqarma boshlig'inining ko'rib chiqishi uchun tahliliy va boshqa materiallarni tayyorlaydi;

tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi sohasi bo'yicha xalqaro normalar va talablarga javob beradigan statistik uslubiyotni ishlab chiqadi va statistika kuzatuvlari shakllarini statistik ma'lumotlarni shakllantirish jarayoniga joriy etadi;

davlat idoralari, yuridik shaxslar, xalqaro tashkilotlar va aholini belgilangan tartibda tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasiga oid statistik ma'lumotlar bilan ta'minlaydi;

jismoniy va yuridik shaxslarning yozma va og'zaki murojaatlarini o'z vaqtida va to'liq ko'rib chiqadi, qonun hujjatlarda belgilangan tartibda va muddatlarda murojaat egalariga javoblar tayyorlaydi;

Bo'lim ish uslubini takomillashtirib boradi, fuqarolar murojaatlarini o'z vaqtida bajarilishini ta'minlaydi, boshqarma xodimlari tomonidan o'zlariga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarilishi bo'yicha mas'uliyatini oshirib boradi;

Bo'lim hamda hududiy statistika organlari bilan birligida tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi sohasida axborotlarni shakllantirish bo'yicha ishlarni tashkil etadi va muvofiqlashtiradi;

Statistika ishlari dasturining tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi qismi bo'yicha vazifalar ijrosini ta'minlaydi;

hududiy statistika idoralari tomonidan, tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi sohasiga oid statistika kuzatuvlarini yagona statistika uslubiyoti asosida tashkil etish ishlarini muvofiqlashtiradi;

tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasiga oid statistika hisobotlarini elektron shaklda taqdim etish va elektron hujjat aylanishi tizimini joriy qilish ishlarini tashkil etadi, bu yo'nalishda hududiy statistika organlari faoliyatini muvofiqlashtiradi;

zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi asosiy ko'rsatkichlarining takomillashtirilgan ma'lumotlar bazasini yuritadi;

Bo'lim o'ziga yuklatilgan boshqa funksiyalarni belgilangan tartibda amalga oshiradi.

### **3-bob. Bo'limning huquqlari va majburiyatları**

8. Bo'lim o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

Bo'lim hududiy statistika organlaridan o'ziga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur materiallar va ma'lumotlarni belgilangan tartibda so'rash va olish;

tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi sohasida ishlarini tashkil etish va takomillashtirish bo'yicha Statistika agentligi rahbariyatiga takliflar kiritish;

statistika kuzatuvi shakllarini o'zgartirish va ularni taqdim etish tartibi, statistika kuzatuvlarini o'tkazish usullari, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining idoraviy statistik kuzatuv shakllari bo'yicha takliflar berish;

hududiy statistika boshqarmalari tomonidan tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi sohasida yagona siyosatni amalga oshirish ishlarini muvofiqlashtirish;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan va boshqa yuridik shaxslardan (zarur hollarda ularning vakolatxonalari va filiallaridan) statistika hisobotlarini belgilangan tartibda olish hamda ulardan statistika maqsadlarida foydalanish;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasiga oid ishlarni olib borish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni (ularni ishlab chiqishning istalgan bosqichida), shuningdek, ularga ilova qilinadigan tushuntirishlarni so'rash va olish;

tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi sohasiga oid statistika kuzatuvlarining metodologiyasi va tashkil etilishi, shuningdek, rasmiy statistik axborotlar bilan bog'liq masalalar bo'yicha axborot-tushuntirish ishlarini olib borish;

tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasiga oid ma'lumotlarning to'liqligi, ishonchliligi va xolisonaligini ekspertizadan o'tkazish;

tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi sohasidagi milliy statistika ma'lumotlarida buzilishlar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish bo'yicha ko'rsatmalar berish va yig'ma milliy statistika ma'lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritish;

Bo'lim faoliyatiga tegishli masalalar bo'yicha konferensiylar, seminarlar va yig'ilishlar, shu jumladan xalqaro yig'ilishlar ishida, shuningdek, xalqaro loyihalarda ishtirok etish;

Statistika ishlari dasturi, Statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturi, Statistika agentligining ish rejalarini, Boshqarma ish rejasining tuzilishi va mazmuni bo'yicha Statistika agentligi rahbariyatiga takliflar kiritish;

Bo'lim vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha Boshqarma bo'limlari bilan hamkorlik qilish.

#### 9. Bo'lim quyidagi majburiyatlarga ega:

o'ziga yuklangan vazifalarni samarali va lozim darajada bajarish;

vakolatiga kiruvchi tahliliy va boshqa materiallarni yuqori darajada tayyorlash;

rasmiy statistika prinsiplariga amal qilish, ilg'or xalqaro amaliyotga muvofiq foydalilanilayotgan usullar va metodikalarni doimiy ravishda takomillashtirish;

Bo'lim xodimlari tomonidan belgilangan normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq, ijro intizomini ta'minlash.

### **4-bob. Bo'limning tuzilmasi**

#### 10. Bo'limning tuzilmasi o'z ichiga Bo'lim boshlig'ini, shuningdek:

Tashqi va ichki savdo statistikasi bo'yicha yig'ma tahliliy axborotlarni shakllantirish bo'limi;

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdoning statistik kuzatuvlari bo'limini oladi.

Har bir bo'lim tarkibiga bevosita boshqarma boshlig'ining o'rinnbosari hisoblanadigan bo'lim boshlig'i, bo'lim boshlig'i, bosh va yetakchi mutaxassislar kiradi.

11. Bo'lim va uning tarkibiga kiruvchi bo'limlar ishiga Bo'lim boshlig'i rahbarlik qiladi.

12. Bo'lim boshlig'i va mutaxassislari Boshqarma boshlig'i tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

13. Quyidagilar Tashqi va ichki savdo statistikasi bo'yicha yig'ma tahliliy axborotlarni shakllantirish bo'limining asosiy vazifalari hisoblanadi:

Tashqi va ichki savdo sohasida maqsadli dasturlarning amalga oshirilishi bo'yicha oylik, choraklik va yillik statistik hamda tahliliy malumotlarni tayyorlash va taqdim etish;

tahliliy jadvallar, press-relizlar, ma'ruzalar va statistik to'plamlarni tayyorlash, tashqi va ichki savdo sohasi masalalari bo'yicha xalqaro tashkilotlar savolnomalarini to'ldirish;

hududlar kesimida tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasining yig'ma tahliliy axborotlar uchun zarur bo'ladigan asosiy ko'rsatkichlari dinamikasini, ma'lumotlari bazasini yuritish;

ma'lumotlar taqdim etish va axborot-tushuntirish tadbirlarini qo'shgan holda respondentlar va axborot foydalanuvchilari bilan o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borish;

Shaharning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ko'rsatkichlarini va xalqaro statistik to'plamlar materiallarini qo'shgan holda tashqi va ichki savdo sohasida tahliliy axborotlarni shakllantirish jarayonida mahalliy va xorijiy foydalanuvchilar keng doirasi uchun statistik axborotlarni imkon darajasida shaffofligi va oshkorligini ta'minlash;

BMTning va Xalqaro valyuta fondining qo'llanmalari hamda Xalqaro valyuta fondining Ma'lumotlarni tarqatish umumiyligi standartiga muvofiq statistik metajma'lumotlar tizimini yaratish, yuritish va yangilash bo'yicha amalga oshiriladigan ishlarda ishtirok etish.

14. Tashqi va ichki savdo statistikasi bo'yicha yig'ma tahliliy axborotlarni shakllantirish bo'limi o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi sohasi uslubiyoti, statistika ishlarini tashkil etish va ularni bajarish masalalari bo'yicha Statistika agentligining tarkibiy bo'linmalari va hududiy statistika organlariga yordam ko'rsatadi;

jismoniy va yuridik shaxslarning yozma va og'zaki murojaatlarini o'z vaqtida va to'liq ko'rib chiqilishini, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlarda murojaat egalariga javoblar tayyorlaydi;

Boshqarma boshlig'ining topshiriqlari va foydalanuvchilarning so'rovlariiga asosan tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'yicha ma'lumotlar tayyorlaydi;

xalqaro tavsiyalar, shu jumladan sifatni boshqarishning milliy modellari (GSIM, GSBPM, GAMSO) hamda xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini joriy etadi;

Bo'limning uslubiy, iqtisodiy, tashkiliy va statistik ishlari rejalariga takliflarni shakllantiradi va ularning bo'limga tegishli qismi ijrosini ta'minlaydi;

Boshqarma boshlig'i ko'rib chiqishi uchun tahliliy va boshqa materiallarni tayyorlaydi;

tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi sohasi bo'yicha xalqaro normalar va talablarga javob beradigan statistik uslubiyotni ishlab chiqadi;

davlat idoralari, yuridik shaxslar, xalqaro tashkilotlar va aholini belgilangan tartibda tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasiga oid statistik ma'lumotlar bilan ta'minlaydi;

bo'lim ish uslubini takomillashtirib boradi, fuqarolar murojaatlarini o'z vaqtida bajarilishini ta'minlaydi, bo'lim xodimlari tomonidan o'zlariga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarilishi bo'yicha mas'uliyatini oshirib boradi;

Statistika agentligining tarkibiy bo'linmalari hamda hududiy statistika organlari bilan birgalikda tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi sohasida axborotlarni shakllantirish bo'yicha ishlarni tashkil etadi va muvofiqlashtiradi;

Statistika ishlari dasturining tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi qismi bo'yicha vazifalar ijrosini ta'minlaydi;

zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi asosiy ko'rsatkichlarining takomillashtirilgan ma'lumotlar bazasini yuritadi;

bo'lim o'ziga yuklatilgan boshqa funksiyalarni belgilangan tartibda amalga oshiradi.

15. Quyidagilar Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdoning statistik kuzatuvlari bo'limining asosiy vazifalari hisoblanadi:

tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'yicha (kuzatuv shakllari va yig'ma tahliliy jadvallar namunasi, ko'rsatkichlarni hisoblash metodikasi, ma'lumotlarni qayta ishlash bo'yicha dasturiy ta'minotlarni ishlab chiqish va

takomillashtirish uchun texnik topshiriqlarni tayyorlash) statistik instrumentariylarni shakllantirish;

tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'yicha axborotlarni Statistika ishlari dasturida belgilangan ishlar va muddatlar bo'yicha yig'ish, qayta ishslash, umumlashtirish, tahlil qilish, saqlash, chop etish va tarqatish;

tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo sohasi bo'yicha muhim indikatorlarni baholash va hisob-kitobini yuritish, barqaror rivojlanish maqsadlari indikatorlari uchun ma'lumotlar tayyorlash;

tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi axborotlarini shakllantirish masalalari bo'yicha hududlar miqyosida tegishli bo'linmalar faoliyatini muvofiqlashtirish;

tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo sohasi bo'yicha statistik axborotlarni yig'ish, qayta ishslash, umumlashtirish va saqlashning zamonaviy usul va uslubiyotlarini keng joriy qilgan holda statistik kuzatuvlarni tashkil etish va umume'tirof etilgan xalqaro amaliyotga moslashtirib borish.

16. Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdoning statistik kuzatuvlari bo'limi o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

xalqaro tavsiyalar, shu jumladan sifatni boshqarishning milliy modellari (GSIM, GSBPM, GAMSO) hamda xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini joriy etadi;

Boshqarmaning uslubiy, iqtisodiy, tashkiliy va statistik ishlari rejalariga takliflarni shakllantiradi va ularning bo'limga tegishli qismi ijrosini ta'minlaydi;

tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasiga oid tizimlashtirilgan elektron ma'lumotlar bazasining yaratilishi va yuritilishini, uning muntazam ravishda to'ldirilib va yangilanib borilishini ta'minlaydi;

Boshqarma boshlig'i ko'rib chiqishi uchun tahliliy va boshqa materiallarni tayyqrlaydi;

tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi sohasi bo'yicha statistika kuzatuvlari shakllarini statistik ma'lumotlarni shakllantirish jarayoniga joriy etadi;

bo'lim ish uslubini takomillashtirib boradi, bo'lim xodimlari tomonidan o'zlariga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarilishi bo'yicha mas'uliyatini oshirib boradi;

Boshqarmaning bo'limlari hamda hududiy statistika organlari bilan birgalikda tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi sohasida axborotlarni shakllantirish bo'yicha ishlarni tashkil etadi va muvofiqlashtiradi;

Statistika ishlari dasturining tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi qismi bo'yicha vazifalar ijrosini ta'minlaydi;

hududiy statistika idoralari tomonidan, tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi sohasiga oid statistika kuzatuvlarini yagona statistika uslubiyoti asosida tashkil etish ishlarini muvofiqlashtiradi;

tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasiga oid statistika hisobotlarini elektron shaklda taqdim etish ishlarini tashkil etadi, bu yo'nalishda hududiy statistika organlari faoliyatini muvofiqlashtiradi;

bo'lim o'ziga yuklatilgan boshqa funksiyalarni belgilangan tartibda amalga oshiradi.

### **5-bob. Bo'limning faoliyatini tashkil etish**

17. Bo'limning ishi O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan Statistika ishlari dasturi, Statistika agentligi tomonidan tasdiqlanadigan Statistika ishlarini ishlab chiqish dasturi, "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi to'g'risida"gi nizom, mazkur nizom, Statistika agentligi direktorining buyruqlari va topshiriqlariga muvofiq, shuningdek, Statistika agentligining ish rejali, Bo'limning ish rejali va Bo'lim xodimlarining funksional vazifalari asosida tashkil etiladi.

Bo'limning ish rejasi Boshqarma boshlig'i tomonidan tasdiqlanadigan Boshqarmaning ish rejali asosida shakllantiriladi va Boshqarma boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi.

Xodimlarning funksional vazifalari Bo'lim boshlig'i tomonidan bo'linmaga yuklangan vazifalardan kelib chiqqan holda tayyorlanadi va Boshqarma boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi.

#### **18. Bo'lim boshlig'i:**

, Bo'lim bevosita rahbarlikni amalga oshiradi, mutaxassislarning ishini tashkil qiladi, Bo'limga yuklangan vazifa va funksiyalarning lozim darajada bajarilishi, ijro va mehnat intizoming holati uchun shaxsan javob beradi;

Bo'limning tasdiqlangan tuzilmasi va shtat jadvaliga muvofiq, lavozimlarga tavsiya qilingan nomzodlar, xodimlarning kasbiy darajasi va ish malakasini oshirish, ularni rag'batlantirish va jazolash choralar bo'yicha takliflarni puxta ishlab chiqadi va rahbariyatga ko'rib chiqish uchun kiritadi;

Bo'limning ish rejasi loyihasini ishlab chiqadi va Boshqarma boshlig'iga tasdiqlash uchun kiritadi;

Bo'lim xodimlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

Boshqarmaning yig'ilishlari va majlislarida, shuningdek Boshqarma boshlig'i gaining topshirig'iga binoan Bo'lim tasarrufiga kiruvchi masalalar bo'yicha idoralararo ishchi guruhlar va kengashlar faoliyatida ishtirok etadi;

Bo'lim faoliyatini xalqaro tavsiyalar, shu jumladan sifatni boshqarishning milliy modellari (GSIM, GSBPM, GAMSO) hamda ilg'or xorijiy tajribalardan foydalangan holda tashkil etilishini ta'minlaydi;

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi sohasida normativ va metodologik hujjatlarni va statistika kuzatuvlari shakllari loyihamonini ekspert jihatdan puxta ishlab chiqilishini tashkil qiladi;

Boshqarma boshlig'i va uning o'rinnbosarlarining topshiriqlariga muvofiq, tahliliy va umumlashtiruvchi materiallarni tayyorlaydi, qo'yilgan vazifalarni yanada samarali amalga oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilishini ta'minlaydi;

Tashqi iqtisodiy faoliyat statistikasi bo'yicha uslubiy hujjatlarni qo'llash bo'yicha statistika bo'linmalarining rahbarlari va mutaxassislariga maslahat va uslubiy yordam ko'rsatadi;

Boshqarma boshlig'inining va Bo'limning joriy va istiqbol ish rejalariga muvofiq Bo'lim vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha tahliliy va boshqa materiallarni o'z vaqtida, tizimli asosda tayyorlanishini ta'minlaydi;

Bo'lim ishining samaradorligi darajasini oshirish va kadrlar bilan to'ldirish choralarini ko'radi;

Bo'lim kadrlari zaxirasini shakllantirishni va yangilashni, kadrlar zaxirasiga kiritilgan shaxslar bilan tizimli ishlarni tashkil qilishni ta'minlaydi;

Bo'lim xodimlari bilan yuklatilgan vazifalar, kiruvchi hujjatlarni nazorat qilish va tajriba almashish masalalari yuzasidan yo'rqnoma berish bo'yicha yig'ilishlar o'tkazadi;

ish yuritishni olib borish, topshiriqlarni o'z vaqtida ijro etilishini qat'iy nazorat qilish bo'yicha ishlarni tashkil qiladi, xodimlar tomonidan xizmat hujjatlari bilan ishlash va ularni saqlash bo'yicha ishlarning belgilangan tartibiga amal qilinishini ta'minlaydi.

19. Bo'lim boshlig'i vaqtinchalik bo'limgan taqdirda uning vazifasini bosh mutaxassis bajaradi.

#### **20. Bo'lim bosh mutaxassisi:**

funksional vazifalariga muvofiq ma'lumotlar, materiallar, takliflar va hujjatlar loyihamonining sifatli, ishonchli va o'z vaqtida tayyorlanishi uchun shaxsan javob beradi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari, farmoyishlari va protokol topshiriqlaridan kelib chiqadigan statistika organlari vazifalarini amalga oshirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

byulletenlar, to'plamlar, ma'ruzalar va iqtisodiy yozishma materiallar uchun statistik ma'lumotlar tayyorlaydi;

muhim indikatorlarni baholaydi va hisob-kitobini yuritadi;

vazifalar taqsimotiga muvofiq, bo'lim faoliyatiga xalqaro tavsiyalar, shu jumladan sifatni boshqarishning milliy modellari (GSIM, GSBPM, GAMSO) hamda ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etishda ishtirok etadi;

ilmiy jurnallar, xalqaro tashkilotlarning metodologik nashrlari va Internet tarmog'idagi materiallarni o'rganish asosida statistika sohasidagi ilg'or xorijiy tajribani rivojlantirish va statistika amaliyotiga joriy etish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

statistika hisobotlari shakllari va kuzatuv so'rovnomalarini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

statistik ma'lumotlarni sharhlash, statistik kuzatuv blankalarini to'ldirish masalalari, ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash uslublari, statistik hisob-kitoblar o'tkazish, olingan ma'lumotlarning ishonchlilagini ekspertizadan o'tkazish bo'yicha maslahatlar beradi;

asosiy statistik ko'rsatkichlarning dinamik qatorlarini yuritadi va doimiy ravishda yangilab boradi;

Bo'lim faoliyatiga tegishli uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va joriy etish ishlarini tashkil etadi;

Bo'lim faoliyatiga tegishli statistika ma'lumotlarining metama'lumotlarini ishlab chiqish, yangilash, kelishish va yuritish ishlarini tashkil etadi;

, statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, saqlash va taqdim etish bo'yicha dasturiy ta'minotlarni sinovdan o'tkazishda ishtirok etadi;

bo'lim boshlig'inining topshirig'iga muvofiq, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini, shu jumladan elektron shakldagi murojaatlarni, ko'rib chiqish uchun zarur materiallarni tayyorlaydi, ularda ko'rsatilgan masalalarni hal qilish bo'yicha loyihani tayyorlaydi;

rahbariyatning topshiriqlariga muvofiq, joriy ishlarni bajaradi;

vazifalar taqsimlanishiga muvofiq, boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

## **25. Bo'lim yetakchi mutaxassis:**

funksional vazifalariga muvofiq ma'lumotlar, materiallar, takliflar va hujjat loyihibalarining sifatli, ishonchli va o'z vaqtida tayyorlanishi uchun shaxsan javob beradi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari, farmoyishlari va protokol topshiriqlaridan kelib chiqadigan statistika organlari vazifalarini amalga oshirish bo'yicha takliflar tayyorlashda ishtirok etadi;

statistika hisobotlarini belgilangan muddatlarda sifatli taqdim etilishini nazorat qiladi, olingan ma'lumotlarni tahlil qiladi, ular asosida jamlanma ma'lumotlar jadvallarini shakllantiradi, asosiy statistik ko'rsatkichlarni hisoblash ishlarini amalga oshirishda ishtirok etadi;

byulletenlar, to'plamlar, ma'ruzalar va iqtisodiy yozishma materiallar uchun statistik ma'lumotlar tayyorlashda ishtirok etadi;

vazifalar taqsimotiga muvofiq, bo'lim faoliyatiga xalqaro tavsiyalar, shu jumladan sifatni boshqarishning milliy modellari (GSIM, GSBPM, GAMSO) hamda ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etishda ishtirok etadi;

statistika hisobotlari shakllari va kuzatuv so'rovnomalari takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlashda ishtirok etadi;

statistik ma'lumotlarni sharplash, statistik kuzatuv blankalarini to'ldirish masalalari, ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishslash uslublari, statistik hisob-kitoblar o'tkazish, olingan ma'lumotlarning ishonchlilagini ekspertizadan o'tkazish bo'yicha maslahatlar berishda ishtirok etadi;

Bo'lim faoliyatiga tegishli uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va joriy etish ishlarini tashkil etadi;

Bo'lim faoliyatiga tegishli statistika ma'lumotlarining metama'lumotlarini ishlab chiqish, yangilash, kelishish va yuritish ishlarini tashkil etadi;

, bo'lim boshlig'inining topshirig'iga muvofiq, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini, shu jumladan elektron shakldagi murojaatlarni, ko'rib chiqish uchun zarur materiallar va ularda ko'rsatilgan masalalarni hal qilish bo'yicha takliflar tayyorlashda ishtirok etadi;

ish yuritishni olib boradi, Boshqarmada hujjatlarning o'tish tartibini tashkil qiladi, hujjatlarni arxivda saqlash uchun tayyorlash va o'z vaqtida topshirishni ta'minlaydi;

rahbariyatning topshiriqlariga muvofiq, joriy ishlarni bajaradi;

vazifalar taqsimlanishiga muvofiq, boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

Stavropol. ~~St.~~ B. Stepanov  
Simeonov Sh. G. B. B. Serebryakov  
Tashkent ~~St.~~ M. Godikov

and the following recommendations to the Central Statistical Bureau:  
1. To increase the number of institutions with established statistical departments.  
2. To take the initiative of the statistical bureaus to increase the number of statistical offices, which are necessary to collect information on economic

activities. These offices should be organized independently and have their own administrative and financial autonomy. There should also be a group of experts specialized in preparing statistical reports and analyses.

3. To increase the number of statistical offices in districts and cities, which are necessary to collect information on economic activities. These offices should be organized independently and have their own administrative and financial autonomy.

4. To increase the number of statistical offices in districts and cities, which are necessary to collect information on economic activities. These offices should be organized independently and have their own administrative and financial autonomy.

5. To increase the number of statistical offices in districts and cities, which are necessary to collect information on economic activities. These offices should be organized independently and have their own administrative and financial autonomy.

6. To increase the number of statistical offices in districts and cities, which are necessary to collect information on economic activities. These offices should be organized independently and have their own administrative and financial autonomy.

7. To increase the number of statistical offices in districts and cities, which are necessary to collect information on economic activities. These offices should be organized independently and have their own administrative and financial autonomy.

8. To increase the number of statistical offices in districts and cities, which are necessary to collect information on economic activities. These offices should be organized independently and have their own administrative and financial autonomy.

9. To increase the number of statistical offices in districts and cities, which are necessary to collect information on economic activities. These offices should be organized independently and have their own administrative and financial autonomy.